

KORXONALARDA MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISH VA TO‘LOV QOBILIYATI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Ilmiy rahbar:

Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna,

Komilov Asadbek

Andijon davlat texnika instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda moliyaviy risklarni samarali boshqarishning to‘lov qobiliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Maqolada moliyaviy risklarning asosiy turlari, ularning korxonaga faoliyatiga salbiy ta’siri hamda risklarni kamaytirish mexanizmlari yoritib berilgan. Maqolada korxonaga moliyaviy barqarorligini ta’minlashda likvidlilik, rentabellik va pul oqimlarini samarali boshqarish muhim omil ekanligi asoslab o‘tilgan. Maqolada moliyaviy risklarni oldindan baholash va ularni boshqarish orqali korxonaning to‘lov qobiliyatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy risk, to‘lov qobiliyati, likvidlilik, rentabellik, pul oqimlari, risklarni boshqarish, debitorlik qarzlari, kreditorlik qarzlari.

Kirish. Korxonalar faoliyati davomida turli xil moliyaviy risklarga duch keladi. Ushbu risklar korxonaning moliyaviy barqarorligi, to‘lov qobiliyati hamda umumiy iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatning kuchayishi, inflyatsiya darajasining o‘zgarishi, valyuta kurslarining beqarorligi hamda kredit majburiyatlarining ortib borishi moliyaviy risklarni boshqarishni korxonalar uchun muhim vazifaga aylantirmoqda. Moliyaviy risklarni samarali boshqarish orqali korxonaga nafaqat zararlarning oldini oladi, balki o‘zining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ham ta’minlaydi [1]. Moliyaviy risk deganda korxonaning moliyaviy faoliyati natijasida zarar ko‘rish ehtimoli tushuniladi. Bunday risklar korxonaga daromadlarining kamayishi, xarajatlarning ortishi yoki pul oqimlarining izdan chiqishi natijasida yuzaga keladi. Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy risklarning bir nechta asosiy turlari ajratib ko‘rsatiladi. Ularga kredit riski, likvidlilik riski, foiz riski, valyuta riski, investitsion risk hamda inflyatsion risk kiradi.

Kredit riski korxonaga tomonidan olingan qarz mablag‘larini o‘z vaqtida qaytara olmaslik xavfi bilan bog‘liq hisoblanadi. Hozirgi davrda ko‘plab korxonalar o‘z faoliyatini kengaytirish yoki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun bank kreditlaridan foydalanmoqda. Ammo kredit majburiyatlarining ortib borishi korxonaga moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agar korxonaga o‘z vaqtida kredit

to'lovlarini amalga oshira olmasa, jarimalar va qo'shimcha foiz xarajatlari yuzaga keladi. Bu esa korxonaning to'lov qobiliyatini pasaytiradi. Shu sababli kredit riskini kamaytirish uchun korxonalar kredit yuklamasini to'g'ri rejalashtirishi, qarz mablag'laridan samarali foydalanishi hamda pul oqimlarini doimiy nazorat qilib borishi lozim.

Likvidlilik riski ham korxonalar uchun eng muhim moliyaviy xavflardan biri hisoblanadi [2]. Ushbu risk korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida qoplay olmaslik holatini ifodalaydi. Likvidlilik darajasining pastligi korxonalar faoliyatining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Masalan, korxonalar ish haqi, soliq yoki yetkazib beruvchilar oldidagi qarzlarni o'z vaqtida to'lay olmasa, uning obro'si pasayadi va moliyaviy holati yomonlashadi. Likvidlilik riskini kamaytirish uchun korxonalar aylanma mablag'lardan oqilona foydalanishi, debitorlik qarzlarni qisqartirishi hamda pul mablag'lari harakatini samarali boshqarishi zarur.

Valyuta riski tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun alohida ahamiyatga ega. Valyuta kursining keskin o'zgarishi import va eksport operatsiyalariga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, milliy valyutaning qadrsizlanishi import qilinadigan xomashyo va uskunalarning narxining oshishiga sabab bo'ladi. Natijada ishlab chiqarish xarajatlari ortadi va korxonaning foydasi kamayadi. Shu bilan birga, eksport qiluvchi korxonalar ayrim hollarda valyuta kursining o'zgarishidan foyda ham olishlari mumkin. Valyuta riskini kamaytirish maqsadida korxonalar diversifikatsiya usullaridan foydalanishi, valyuta tushumlari va xarajatlarini muvozanatlashtirishi hamda uzoq muddatli valyuta prognozlarini ishlab chiqishi kerak.

Foiz riski esa kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarishi bilan bog'liq [3]. Agar bozor foiz stavkalari oshib ketsa, korxonaning kredit xarajatlari ham ortadi. Bu esa sof foyda miqdorining kamayishiga olib keladi. Ayniqsa, uzoq muddatli kreditlardan foydalanadigan korxonalar uchun foiz riskining ta'siri yuqori bo'ladi. Ushbu riskni kamaytirish uchun korxonalar qat'iy foiz stavkalariga ega kreditlardan foydalanishi yoki kredit portfelini diversifikatsiya qilishi mumkin.

Investitsion risk ham korxonalar moliyaviy faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Investitsion risk investitsiya loyihalarining kutilgan daromadni bermasligi yoki zarar bilan yakunlanishi ehtimolini anglatadi. Masalan, noto'g'ri tanlangan investitsiya loyihasi korxonaning katta miqdordagi mablag'larini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli investitsiya qarorlarini qabul qilishdan oldin loyihaning iqtisodiy samaradorligi, rentabellik darajasi va bozor talabi chuqur tahlil qilinishi lozim. Inflyatsion risk ham korxonalar moliyaviy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasining yuqoriligi ishlab chiqarish xarajatlarning oshishiga, xomashyo va energiya resurslari narxining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Natijada korxonalar mahsulot tannarxi oshadi va foyda miqdori kamayadi. Shu bilan birga,

aholining xarid qobiliyati pasayishi mahsulotlarga bo‘lgan talabning qisqarishiga olib keladi. Inflyatsion riskni kamaytirish uchun korxonalar xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan tejamkor foydalanish hamda narx siyosatini moslashtirish choralarini ko‘rishi kerak.

Moliyaviy risklarning korxonaga faoliyatiga salbiy ta‘siri juda keng ko‘lamli hisoblanadi. Avvalo, risklar korxonaning moliyaviy barqarorligini izdan chiqaradi. Daromadlarning kamayishi va xarajatlarning ortishi natijasida korxonaga zarar ko‘rishi mumkin. Bundan tashqari, to‘lov qobiliyatining pasayishi bankrotlik xavfini kuchaytiradi. Moliyaviy risklar investorlar va kreditorlarning korxonaga bo‘lgan ishonchini ham kamaytiradi. Natijada korxonaning yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari qisqaradi.

Moliyaviy risklarni kamaytirishda risklarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Risklarni boshqarish jarayoni risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Korxonalarda ichki nazorat tizimini kuchaytirish, moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish risklarni boshqarish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, diversifikatsiya usuli ham moliyaviy risklarni kamaytirishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Diversifikatsiya orqali korxonaga faoliyati bir nechta yo‘nalishlarga taqsimlanadi va bu bitta omil ta‘sirida katta zarar ko‘rish ehtimolini kamaytiradi. Sug‘urta mexanizmlaridan foydalanish, zaxira fondlarini shakllantirish hamda moliyaviy tahlilni muntazam amalga oshirish ham risklarni kamaytirishga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash eng muhim iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi [4]. Moliyaviy barqarorlik korxonaning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishi, doimiy faoliyat yuritishi, foyda olishi hamda bozordagi raqobatga bardosh bera olish qobiliyatini ifodalaydi. Korxonaga faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan likvidlilik darajasi, rentabellik ko‘rsatkichlari va pul oqimlarini to‘g‘ri boshqarishga bog‘liq bo‘ladi. Aynan ushbu omillar korxonaning moliyaviy xavfsizligini ta‘minlashda asosiy iqtisodiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Likvidlilik korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida qoplay olish qobiliyatini anglatadi. Moliyaviy tahlilda likvidlilik ko‘rsatkichlari korxonaning joriy aktivlari va joriy majburiyatlari o‘rtasidagi nisbat orqali aniqlanadi. Agar korxonaning likvid aktivlari yetarli darajada bo‘lmasa, u o‘zining kundalik moliyaviy majburiyatlarini bajarishda qiyinchilikka duch keladi. Natijada korxonaning moliyaviy holati yomonlashadi, kreditorlar oldidagi ishonchi pasayadi hamda ishlab chiqarish jarayonida uzilishlar yuzaga keladi.

Hozirgi davrda iqtisodiy beqarorlik va inflyatsiya darajasining oshishi korxonalar uchun likvidlilikni boshqarish masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Xalqaro moliyaviy tahlil amaliyotida joriy likvidlilik koeffitsiyenti 1,5–2 oralig‘ida bo‘lishi maqbul deb hisoblanadi. Agar ushbu ko‘rsatkich juda past bo‘lsa, korxonada qisqa muddatli qarzlarni qoplashda muammolarga duch keladi. Aksincha, likvid mablag‘larning ortiqcha darajada yuqori bo‘lishi ham resurslardan samarasiz foydalanishni anglatadi. Shu sababli korxonalar likvidlilikni optimal darajada ushlab turishga intilishi lozim. Likvidlilikni samarali boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Buning uchun korxonada aylanma mablag‘lardan oqilona foydalanishi, debitorlik qarzlarni nazorat qilishi hamda mahsulot sotish jarayonini tezlashtirishi zarur. Ayniqsa, debitorlik qarzlarning ortib ketishi pul oqimlarining sekinlashishiga sabab bo‘ladi. Natijada korxonada yetkazib beruvchilar yoki banklar oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olmay qoladi. Shu bois zamonaviy korxonalarda debitorlik qarzlarni monitoring qilish va elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Korxonada moliyaviy barqarorligini ta‘minlovchi yana bir asosiy omil rentabellik hisoblanadi [5]. Rentabellik korxonaning mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi va foyda olish darajasini ko‘rsatadi. Yuqori rentabellik korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi, investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun moliyaviy asos yaratadi. Rentabellikning pasayishi esa korxonada faoliyatining samarasizligini bildiradi. Iqtisodiy tahlilda sotuv rentabelligi, aktivlar rentabelligi va xususiy kapital rentabelligi eng muhim ko‘rsatkichlar sifatida qaraladi. Masalan, aktivlar rentabelligi korxonada aktivlaridan qanchalik samarali foydalanilayotganini ko‘rsatadi. Agar korxonada katta hajmdagi aktivlarga ega bo‘lsa-yu, foyda darajasi past bo‘lsa, bu resurslardan samarali foydalanilmayotganini anglatadi. Shu sababli korxonalar rentabellikni oshirish uchun xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishga e‘tibor qaratmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari rentabellikni oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish mehnat unumdorligini oshiradi va ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, marketing strategiyalarini takomillashtirish ham mahsulot sotuv hajmini oshirib, foyda miqdorining ko‘payishiga yordam beradi. Ayniqsa, eksport faoliyatini rivojlantirayotgan korxonalar uchun rentabellik darajasi muhim iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Pul oqimlarini samarali boshqarish ham korxonada moliyaviy barqarorligining asosiy omillaridan biri sanaladi. Pul oqimlari korxonaga kirib kelayotgan va chiqib ketayotgan pul mablag‘lari harakatini ifodalaydi. Agar korxonada pul oqimlari to‘g‘ri

boshqarilmasa, foyda mavjud bo'lsa ham moliyaviy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Chunki foyda va real pul mablag'lari harakati o'rtasida farq mavjud. Ayrim holatlarda korxonalar katta foyda ko'rsatkichiga ega bo'lsa ham, yetarli pul mablag'i bo'lmagani sababli to'lov qobiliyatini yo'qotishi mumkin. Pul oqimlarini boshqarishda operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan tushadigan mablag'lar muhim o'rin tutadi [6]. Operatsion faoliyatdan barqaror pul oqimining mavjudligi korxonalar faoliyatining samarali tashkil etilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, investitsion faoliyatdan keladigan pul oqimlari korxonaning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Moliyaviy faoliyat bilan bog'liq pul oqimlari esa kreditlar, investitsiyalar va dividend to'lovlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Pul oqimlarini samarali boshqarish uchun korxonalar moliyaviy rejalashtirish tizimini takomillashtirishi kerak. Zamonaviy iqtisodiy amaliyotda "cash flow management" tizimi keng qo'llanilmoqda. Ushbu tizim yordamida korxonalar kelajakdagi pul tushumlari va xarajatlarini oldindan prognoz qiladi. Bu esa moliyaviy xavflarni kamaytirish va likvidlikni saqlab qolishga yordam beradi. Shuningdek, pul oqimlarini samarali boshqarish investitsion jozibadorlikni oshiradi. Investorlar odatda pul oqimlari barqaror bo'lgan korxonalariga ko'proq mablag' yo'naltiradi. Chunki barqaror pul oqimi korxonaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Natijada korxonalar yangi investitsiyalar jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmini kengaytirishi mumkin bo'ladi.

Likvidlik, rentabellik va pul oqimlari o'zaro chambarchas bog'liq iqtisodiy kategoriyalar hisoblanadi. Yuqori rentabellik doimiy pul oqimlarini shakllantiradi, samarali pul oqimlari esa likvidlikni ta'minlaydi. Likvidlikning barqarorligi esa korxonaning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlaydi. Shu sababli korxonalar moliyaviy boshqaruvi tizimida ushbu ko'rsatkichlarni kompleks ravishda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Misol tariqasida, korxonalar moliyaviy barqarorligini baholashda likvidlik, rentabellik va pul oqimlari ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyati, foyda olish darajasi hamda pul mablag'lari harakati samaradorligi aniqlanadi. Quyidagi jadvalda korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan.

Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil	O'zgarish (%)
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	1.4	1.6	1.9	+35.7
Sof foyda (mln so'm)	520	680	910	+75.0
Aktivlar rentabelligi (%)	8.2	10.4	13.1	59.7
Operatsion pul oqimi (mln so'm)	740	920	1240	+67.4

Debitorlik qarzlari (mln so‘m)	410	360	290	-29.3
Qisqa muddatli majburiyatlar (mln so‘m)	890	830	760	-14.6

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning joriy likvidlilik darajasi 2023-yildagi 1,4 ko'rsatkichdan 2025-yilda 1,9 ga oshgan. Bu esa korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish imkoniyati yaxshilanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sof foyda hajmi ham 520 mln so'mdan 910 mln so'mga oshib, korxonada rentabelligi sezilarli darajada yaxshilangan. Operatsion pul oqimlarining o'sishi esa korxonada pul mablag'lari harakati samarali tashkil etilganidan dalolat beradi. Debitorlik qarzlarning kamayishi va qisqa muddatli majburiyatlarning qisqarishi korxonada moliyaviy barqarorligining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlashda likvidlilik, rentabellik va pul oqimlarini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichlarning barqaror holatda saqlanishi korxonaning to'lov qobiliyatini oshiradi, moliyaviy risklarni kamaytiradi hamda bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Ayniqsa, pul oqimlarini to'g'ri rejalashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli korxonalarda zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish, moliyaviy tahlillarni muntazam amalga oshirish va risklarni oldindan baholash mexanizmlarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эргашева Ш.Т. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. – Т.: “Иқтисод-Молия”, 2011. 520 стр.
2. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b
3. Sotivoldiyev A.S. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O'quv qo'llanma. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007 y.
4. Bazarova G. et al. SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN SOCIO ECONOMIC DEVELOPMENT ROLE AND IMPORTANCE //Экономика и социум. – 2024. – №. 10-1 (125). – С. 53-57.
5. Mehribon A., Dilshodbek A. KORXONANING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA BUHGALTERIYA HISOBOTINING O'RNI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 58. – №. 3. – С. 250-256.
6. Doston, Xudoyshukurov. "KORXONA MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH USULLARI." TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR 1.8 (2025): 670-674.